

PEDAGOGIK MAHORAT

6
2025



PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

6-son (2025-yil, iyun)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2025

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2025, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Mas’ul kotib: Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)

Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta’limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta’lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Zotova Firuza Raxmatullova, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)

Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Chariyev Irgash To‘rayevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)

To‘xsanov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Nurulloyev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

SHODIYEVA Yulduz Adizjonovna	Ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning afzalliklari	221
UMIRBEKOVA Barchin Abdurasulovna	Ta’limdagi global tendensiyalar va kognitiv kompetentlikni rivojlantirish strategiyalari	224
JUMAQULOVA Zilola Shuhrat qizi, NORQULOVA Zebiniso Hamza qizi	Ta’lim muassasalari uchun virtual ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etishning pedagogik muammolari	230
MISLIDINOV Baxtiyor Zaynidinovich	Texnika yo’nalishidagi otmalarda tabiiy fanlarni o’qitishda raqamli texnologiyalarning ahamiyati (qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalashtirish yo’nalishi misolida)	234
MA’NAVIYAT VA TARBIYA		
ABDULLAYEVA Malika Ravshanbekovna	Talabalar ma’naviy-axloqiy tarbiyasi jarayonining tarkibida fuqarolik-vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish	241
BOBOYEVA Zulfiya Akbarjonovna	Uzluksiz ma’naviy tarbiya tizimida san’at omilining o’rni	246
HASANOVA Bo’rigul Hasan qizi	Axborotlashgan jamiyatda o’quvchilarda axloqiy dunyoqarashni shakllantirish jarayonining ilmiy va nazariy asoslari	250
RAXIMBAYEV Jo’rabek Sobirovich	Muhammad Yusuf she’riyatida vatan ravnaqi g’oyasining ifodalanishi	256
SUYUNOV Sherzodbek Jamolovich	Talabalarda milliy va umumbashariy qadriyatlarni shakllantirishda so’fi olloyorning axloqiy qarashlari	260
DADABOYEV Suhrob Mansurjonovich	Bo’lajak chaqiriqqacha harbiy ta’lim o’qituvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning innovatsion texnologiyasi	265
RAXMATOVA Dilbar Anvar qizi	Jadid harakatida inson ma’naviyatini yuksaltirishda teatrning alohida o’rni	269
XUDAYKULOVA Shaxlo Mamaniyozovna	Bo’lajak o’qituvchilarda axloqiy qarashlarni shakllantirishda neyropedagogik texnologiyalarning roli	273
ATAKULOVA Nargizaxon Alijonovna	Talabalarda sog’lom ma’naviy dunyoqarashni rivojlantirishga yo’naltirilgan tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili	279
Toshmamatova Shoxsanam Muzaffar qizi	O’quvchilarning ma’naviy immunologik tarbiyasini shakllantirish mexanizmini shakllantirishning o’ziga xos xususiyati	286
PEDAGOGIK TA’LIMOTLAR TARIXI		
ABDULLAYEVA Sabohat G’ayratullayevna	Muhammad Sodiq Qoshg’ariy ijodida “ustoz-shogird” an’anasining yoritilishi	290
MADRAXIMOVA Dinora Ismoil qizi	Muhammadiya madrasasida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usullari	294
NURIDDINOV Rasuljon Samitjon o’g’li	Yusuf xos hojib asarlarida psixologik salomatlik masalasining yoritilishi	299
NUSRATOV Anvar Nematjonovich.,	Abdulvahobxo’ja o’g’li Poshshoxo’janing ijodiy merosi va uning pedagogik mazmuni	303
QURBONOVA Nigina Boboxo’jayevna	Hozirgi zamon ta’lim –tarbiya jarayoniga sadriddin ayniy ilmiy merosini tatbiq etishning samarali yo’llari	307
SAMADOVA Sarvinoz Samad qizi	Ma’rifatparvar jadidlarning ta’lim tizimidagi islohotlari	311
AMIROVA Nazokat Uroq qizi	Sharq mutafakkirlari asarlarida kasb-hunarni egallashga doir qarashlar	315
NASRULLOYEVA Sabina Narzulloyevna	Yangi o’zbekistonda ta’lim jarayonini isloh qilishning me’yoriy-huquqiy asoslari	319
NOSIROVA Sabrina Dilmurod qizi	Qadimgi sharq sivilizatsiyasida ta’lim tarbiya genezisi	323

MAʼRIFATPARVAR JADIDLARNING TAʼLIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLARI

Samadova Sarvinoz Samad qizi,

Buxoro davlat universiteti

“Ijtimoiy-siyosiy fanlar” kafedrası dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida shakllangan jadidchilik harakati namoyondalarining maʼrifiy qarashlari, ularning milliy oʻzlikni anglash va taraqqiyotga erishish yoʻlidagi saʼy-harakatlari pedagogik nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Jumladan, jadid maʼrifatchilarining taʼlim-tarbiya tizimini isloh qilishga boʻlgan yondashuvlari, ularning oʻquv dasturlarini zamon talablariga moslashtirish borasidagi saʼy-harakatlari ilmiy asosda bayon qilinadi. Mazkur tadqiqot jadidchilik harakati namoyondalarining pedagogik qarashlari nafaqat oʻsha davr uchun, balki bugungi kun taʼlim tizimi uchun ham dolzarb ekanligini koʻrsatadi. Shu jihatdan, maqolada taʼlim jarayonining takomillashtirilishi, tarbiyaviy yondashuvlarning oʻzgarishi va maʼrifatparvarlik tamoyillarining jamiyat taraqqiyotiga taʼsiri haqida ham atroflicha soʻz yuritiladi.

Kalit soʻzlar: jadidlar, Ismoil Gaspirali, Behbudiy, maorif islohoti, “Tarjimon” gazetasi, “Oyna” jurnali.

РЕФОРМЫ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ПРОСВЕЩЁННЫХ ДЖАДИДОВ

В данной статье рассматриваются просветительские взгляды представителей джадидского движения, сформировавшегося в конце XIX – начале XX века, их стремления к национальному самосознанию и достижению прогресса с педагогической точки зрения. В частности, научно обосновываются подходы джадидских просветителей к реформированию системы образования и воспитания, их усилия по адаптации учебных программ к требованиям времени. Данное исследование показывает, что педагогические взгляды представителей джадидского движения актуальны не только для того времени, но и для современной системы образования. В связи с этим в статье подробно рассматриваются вопросы совершенствования образовательного процесса, изменения воспитательных подходов и влияние принципов просвещения на развитие общества.

Ключевые слова: Джадиды, Исмаил Гаспыралы, Бехбуди, реформа образования, газета «Тарджуман», журнал «Ойна».

REFORMS OF THE EDUCATIONAL SYSTEM BY ENLIGHTENED JADIDS

This article examines the educational views of the representatives of the jadid movement, which emerged in the late 19th and early 20th centuries, as well as their efforts towards national self-awareness and achieving progress from a pedagogical perspective. In particular, the study scientifically substantiates the approaches of jadid educators to reforming the education and training system and their efforts to adapt curricula to the demands of the time. This research demonstrates that the pedagogical views of the representatives of the jadid movement remain relevant not only for that period but also for the modern education system. In this regard, the article provides a detailed discussion on the improvement of the educational process, changes in educational approaches, and the impact of enlightenment principles on societal development.

Keywords: jadids, Ismail Gaspirali, Behbudi, education reform, "Translator" newspaper, "Mirror" magazine.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator Sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston oʻlkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Yurtimiz ham katta ijtimoiy-siyosiy va maʼrifiy ahamiyatga ega ushbu jarayonlardan chetda qolmagani, aksincha, bu harakatning markazlaridan biriga aylanganini taʼkidlash lozim. Oʻz zamonining ilgʻor namoyandalari boʻlgan jadidlar gʻoyat murakkab va qiyin sharoitda bilim va maʼrifat tarqatish, taʼlim-tarbiya sohasini tubdan isloh etish orqali milliy taraqqiyotga erishish gʻoyasi bilan maydonga chiqdilar.

Ismoil Gaspirali nomi Sharq xalqlarida maʼrifatparvarlik harakatining rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlib, u koʻplab musulmon mamlakatlarida boshlangʻich taʼlimni isloh qilishga katta eʼtibor bergan. Maktablarda dunyoviy fanlarni oʻqitilishini targʻib qildi. Aynan Gaspirali taʼlim tizimini oʻzgartirish asoslarini ishlab chiqdi. Gaspirali oʻz tamoyillarini jamiyat taraqqiyotidagi bagʻrikenglikka asoslagan.

Gaspirali Turkistonga, xususan, Buxoroga kelib, uni ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirishni istaydi. Uning fikricha, bu mintaqada yuz berishi mumkin bo'lgan uyg'onish islom olamining mustamlakachilikdan ozod bo'lish kurashiga katta hissa qo'shadi.

Gaspirali 1893-yilda Turkistonga qilgan safari chog'ida maorif islohoti haqidagi fikrlarini bayon qilgan. 1901-yilda Buxoro madrasalarining sobiq talabalaridan Munavvar qori Tatar usul-u jadid maktablaridan o'rnak olib, Toshkentda birinchi boshlang'ich maktabni ochgan bo'lsa, oradan ikki yil o'tib Behbudiy Samarqandda ikkinchi maktabni ochadi. Jadidlar o'z yurtlarida olgan ta'limdan tashqari Rossiya, Turkiya va Yevropaning turli mamlakatlarida ta'lim olib Gaspirali bilan uchrashganlar.

Behbudiy 1909-yilda “Oyna” jurnalini chiqarishdan avval “Tarjimon” gazetasiga yuborgan maqolasida Turkiston xalqi uchun ham turkiy, ham fors tillarining ahamiyatini ta'kidlab, maktablarda har ikki tilni ham o'qitishni taklif qilgan. Behbudiy o'z fikrini quyidagicha izohlagan: 1) Turkistonda shahar aholisi bir-biri bilan turkiy va fors tillarida muloqot qilishadi 2) ba'zi hududlarda bu ikki tilning aralash shaklini qo'llaganlar; 3) rasmiy idoralarga arizalar turk tilida yozilgan; 4) Diniy fatvolar fors tilida yozilib, turkiy tilida ro'yxatga olingan va bu butun Turkiston hududida amalda bo'lgan. Behbudiy maqolasining so'ngida Turkiston hududida ham turkiy, ham forsiy tilda ta'lim olib borilishi haqida ma'lumot keltiradi [4.123].

Turkiston jadidchilari Turkiston xalqlarining ta'lim-tarbiya tizimiga katta e'tibor berganlar. Ular ta'lim islohotini aholining ijtimoiy-siyosiy dunyoqarashini kengaytirish va madaniy-ma'rifiy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun olib bordilar. Behbudiy ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish haqida qat'iyat bilan shunday deydi: “Dunyodagi xalqlar o'z taraqqiyotini boshlang'ich maktabdan boshlaydi, haqiqatda taraqqiyotning birinchi yo'li maktabdir. Maktab isloh qilinsa, barcha sohalar isloh qilinadi, takomillashadi. Chunki isloh qilingan maktabdan oz bo'lsa ham mutafakkirlar yetishib chiqadi”[4.129]. Bu yerdan anglash mumkinki, Behbudiy qarashlariga ko'ra, maktabni isloh qilishda ikkita maqsadga erishiladi:

Birinchidan, maktablarni isloh qilish orqali umumiy taraqqiyotga erishish;

Ikkinchidan, ziyolilarni tarbiyalash, ya'ni jamiyatga ular istagan ziyolilarni yetishtirib berish.

Jadidlar Turkiston yoshlari zamondan xabardor bo'lishi, fan-texnika yutuqlarini o'rganishi uchun til bilishi, yomon illatlardan qutilishi, buning uchun islom dinining mohiyatini to'g'ri anglay bilishlari kerakligiga katta e'tibor qaratdilar. Turkistonning taraqqiyoti va ravnaqi zamonaviy ta'lim-tarbiya beradigan maktab va oliy dargohlarda tahsil olish, islohotlarni amalga oshirish g'ayratli yoshlarning harakati, ma'rifatparvarligi, shijoati orqali vujudga keladi deb qaraydi. Bu esa hayotdagi mushkul ishlarda yolg'iz yoshlarning ilmiy salohiyatidan foydalanish zarurligini ko'rsatadi[8.61].

Jadidlar yoshlar tahsilni jadid maktabidan keyin maxsus o'rta va oliy o'quv yurtlarida, zanjirsimon davom ettirishlari zarur deb ta'kidlaganlar. Bu harakatining yana bir muhim jihati, ular o'z ona tillarining maqomini ko'tarish va davlat tili sifatida munosabatda bo'lish kerakligi masalasini ko'tarib chiqqan edilar. Bu ayniqsa, 1918 - yilning aprel oyida Turkistonda o'tkazilgan V qurultoyda o'lkaga avtonomiya maqomi berilishi bilan birga mahalliy xalq tilini rus tili bilan bir qatorda davlat tili sifatida e'tirof etish masalasi qayd etildi[6.106].

Behbudiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari, jamiyatni taraqqiy ettirish uchun kadrlar tayyorlashning zarurligi to'g'risidagi qarashlari, uning “Padarkush” asaridagi ziyoli obrazi orqali ifodalanadi. Ziyoli o'zining ilm-fan, texnika, madaniyat, davlat, jamiyat ishlari haqidagi fikr– mulohazalarini aniq, lo'nda, ilmiy, ishonarli dalillar orqali tushuntirishga, isbotlashga harakat qiladi. Xususan, ziyolidagi bu xususiyatlar uning boy bilan bo'lgan munozarasida yaqqol ko'zga tashlanadi[2.35].

Amerikalik olim E.Olvort “Padarkush” dramasi haqida “Dramada ilgari surilgan jiddiy muammolar ta'lim va tarbiyani kuchaytirish, xalqni asriy jaholat, qoloqlikdan qutqarish, jinoyat va jazo, majburiyat va mas'uliyat singari ijtimoiy munosabatlar sodda va ta'sirli ifodalangan. Dramada ilk bora turkistonliklarga o'z tilida, tipik obrazlar, tipik xarakterlar orqali jiddiy hayotiy muammolar, ochiqchasiga gapirilgan edi. Ilmsizlik, jaholat, to'g'ri yo'ldan adashish oilaga baxtsizlik, chinakam kulfat keltirishi ta'sirli dialoglarda aks ettirilgani uchun sahnadagi harakatlar tomoshabinni hayratga solib, butun vujudini qamrab oladi. Sahnadagi voqealarni to'g'ri idrok qilgan har qanday tomoshabin Turkistonning asosiy fojiasi nimadan iborat ekanligini ko'rib yig'laydilar, mamlakat yoshlarini o'qitish orqali yangi hayotga olib chiqish zarurligini tushunadilar [1.157] deb ta'kidlaydi.

Turkistonning ham ilm, ham qishloq xo'jaligida istalgan darajada emasligini bildirgan Behbudiy, maktab, do'kon, ishlab chiqarish korxonalari, fabrika, madrasa va boshqa barcha sohalarini muammolarning yechimi sifatida isloh qilish kerakligini aytadi. Behbudiy fikricha, barcha sohalarida islohotlarni amalga oshirish va zamonaviy ilmga ega bo'lish Turkistonning o'ziga kelishi va oyoqqa turishi uchun ikki muhim harakatdir. Agar bu ishlar amalga oshirilsa, albatta mamlakat rivojlanishini ta'kidlaydi[3.27]. Shu o'rinda Behbudiy yana ta'lim-tarbiyaga urg'u beradi: “Bir so'z bilan aytganda, boshqa xalqlarning boylari

kambag'al va yetimlari uchun maktab va universitetlar quradilar, kambag'al va yetimlarni o'qitish uchun stipendiya ajratadilar. Boshqa xalqlarning millionerlari tashkil qilgan gazeta-jurnallari, qurgan maktabi va yaxshi jamiyati bilan faxrlansa, bizning boylar uyi, oti, aravasi, qilgan to'ylari bilan faxrlanadi. Hatto o'z o'g'illarini o'qitmagan boylar bor. Bunday holat yaxshi alomatlarga olib kelmaydi. Bolalarni o'qitish kerak. Din va zamonaviy ilmlar otalardan bolalarga meros bo'lib qolishi kerak"[7.14].

Ma'rifatparvar jadidlardan biri Abduqodir Shakuriy Samarqandda yangi usuldagi maktabni tashkil qiladi. Yangi usuldagi bu maktabda arifmetika, tabiatshunoslik kabi dunyoviy fanlar o'qitilardi. Shakuriy o'zi ochgan yangi usuldagi maktabida o'qitishning yangi uslublarini joriy qiladi.

A.Shakuriyning o'qish-o'qitish uslubidagi yangilikning ahamiyati shundaki, birinchidan, u o'sha davrda mavjud bo'lgan eski o'qitish usullari va o'qish kitoblarning hammasini rad qilib, savod chiqarishni engillatish maqsadida dastlab bo'g'in usuli, keyinchalik tovush-harf uslublarini qo'llaydi. Bu o'qitish uslubining qulayligi natijasida o'quvchilar ko'pi bilan 6 oy ichida savodli bo'lardi. Ikkinchidan, maktabda kichik yoshdagi o'g'il va qiz bolalarni birga o'qitish uslubini joriy qildi. Uchinchidan, bolalarni avvalo o'z ona tilisida o'qitishga qat'iy rioya qildi va shu bilan birga bolalarni o'zbek, tojik, arab va rus tillarini ham mukammal o'rganishga da'vat qildi. To'rtinchidan, yangi usul maktablari uchun juda sodda, tushunarli tilda darsliklar tuzib, ularni nashr etdi. Beshinchidan, Shakuriy tomonidan joriy qilingan dastlabki yangilik Samarqand maktablariga mehnat va musiqa darslarining kiritilishi bo'ldi. U o'z o'quvchilarini qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikka oid ishlar bilan tanishtirishdan tashqari, muqovachilik, duradgorlik va boshqa hunarlarni ham o'rgatar, bu mashg'ulotlar uchun maktab dasturidan alohida soatlar ham ajratgan edi[5.224].

Jadidlarning ta'lim tizimidagi islohotlari:

Zamonaviy va dunyoviy ta'limga e'tibor berib, an'anaviy dinshunoslik bilan bir qatorda ilmiy-texnika fanlarini ham o'zida mujassam etgan maktablar tashkil etishni targ'ib qilganlar. Jadidlar an'anaviy madrasalar o'rnini bosadigan yangi maktablarni tashkil etishga harakat qilishgan. Jadid maktablarida o'qitish metodikasi yangilanib, ilm-fanning turli sohalar, xususan, matematika, tabiiy fanlar, geografiya, tarix va boshqa zamonaviy fanlar o'rgatila boshlandi.

Islohotlari doirasida yangi alifbo va yozuv tizimini joriy etish ham muhim o'rin tutgan. Ular arab alifbosining o'rnini bosadigan yangi yozuv tizimlarini taklif qilishgan. Bu alifbo, o'z navbatida, yangi ilmiy va pedagogik yondashuvlarni amalga oshirishga imkon berishi kutilgan edi. Jadidlar, bu orqali o'quvchilarga o'qish va yozishni osonlashtirishni, ta'limni kengroq rivojlantirishni maqsad qilganlar.

Ta'limda an'anaviy yondashuvlardan farqli o'laroq, zamonaviy pedagogik usullarga e'tibor berishdi. Masalan, ularning maktablarida o'quvchilar faqat yodlashga emas, balki o'z fikrlarini ifodalashga, tahlil qilishga, mustaqil fikrlashga o'rgatildi. Bu usul, o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlashga yordam berdi.

Yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqishgan. Bu dasturlar zamonaviy fanlarni o'rganishga, shuningdek, o'quvchilarning axloqiy va ma'naviy rivojlanishiga qaratilgan edi. Maktablar dasturlarida, masalan, dunyoviy fanlar, tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar kabi sohalar o'rganilgan.

Diniy ta'limni faqatgina an'anaviy madrasalardagi shaklda qabul qilmay, uni zamonaviylashtirishga harakat qilishgan. Bu o'rinda, diniy fanlar, tafsir, fiqh kabi sohalarini o'rganish o'zgarib, ular ilmiy yondashuv asosida ta'lim berilgan. Bu maktablarda dinni faqat yoddan o'qish emas, balki uni ilmiy va mantiqiy tushunishga urg'u berilgan.

Ta'lim-tarbiya orqali xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish jamiyatning har tomonlama intellektual va ilmiy rivojiga xizmat qilishini e'tirof etib, xotin-qizlarning bilim olishini faol targ'ib qidilar. Bu borada ayollar uchun maxsus maktablar ochish taklifini ilgari surganlar.

Ilmni rivojlantirish maqsadida maktablar va kutubxonalar tashkil etishga ham katta e'tibor berishgan. Kutubxonalar, o'quvchilarga zamonaviy ilmiy va adabiy manbalarni o'qish imkoniyatini yaratish orqali, bilim olish jarayonini yanada samarali qilishni nazarda tutgan. Shuningdek, jadid maktablarida o'quvchilarni ilm-fan va adabiyot bilan tanishtirishda katta ahamiyat berilgan.

O'zlarining islohotlari orqali ta'limni keng jamoatchilik uchun ochiq qilishni maqsad qilganlar. Bepul ta'limni targ'ib qilish orqali, barcha qatlamlarga ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishgan. Bu islohotlar, o'z navbatida, jamiyatni yuksaltirish va barcha fuqarolarni rivojlantirishga xizmat qilgan.

Jadidlar ta'lim tizimidagi islohotlarining maqsadi:

Modernizatsiya va taraqqiyot: Jadidlar, o'z ta'lim tizimida zamonaviy ilm-fanlarni, texnologiyalarni va metodlarni o'zlashtirishga intilganlar. Bu ularning maqsadi – ilm-fan va madaniyatni rivojlantirish edi.

Mustaqillik va ozodlik: Jadidlar ta'limni xalqni ongini yuksaltirish, mustaqil fikrlashga undash, ko'proq bilim olishga imkon yaratish orqali mustaqil va ozod jamiyatni shakllantirishga harakat qilishgan.

An'anaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish: Jadidlar yangi bilimlarni joriy qilish bilan birga, milliy va dini qadriyatlarni ham saqlab qolishga harakat qilganlar.


Jadidlar ta'lim-tarbiya islohoti va ilmiy ma'rifatni amalga oshirish uchun turli usullardan

foydalanganlar. Ular zamonaviy o'qitish usullarini joriy qildilar, o'quv dasturlariga o'zgartirishlar kiritdilar, matematika, fizika, tibbiyot kabi ilmiy fanlarni o'rganishni rag'batlantirdilar. Bu fanlarni islom ta'limotlari bilan uyg'unlashtirish orqali jadidlar o'zgaruvchan davr ehtiyojlariga mos keladigan har tomonlama ta'lim tajribasini yaratishni maqsad qilganlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, jadidchilik Turkiston yoshlarining milliy, madaniy ijtimoiy uyg'onishda va ravnaqida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Zamonning dolzarb masalalarini, hayotning muammolarini ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'naviy yo'l bilan yechish yo'llarini jadidlar o'z maqola va asarlarida ko'rsatganlar. Yoshlarni o'qishga, bilim olish va ishlab chiqarish jarayoniga jalb etish, ma'naviy saviyasini yuksaltirishga chorlaganlar. Jahon taraqqiyoti yutuqlarini Turkistonga olib kelish orqali Vatan uchun xizmat qiladigan yetuk olimlar, sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarining zamonaviy bilimdon mutaxasislari, madaniyat arboblari yetishib chiqib, yurtni obod, farovon etishlariga ishonganlar. Yoshlar manfaatini himoya qilish, ularning jamiyat va davlatda munosib o'rin egallashlari uchun tegishli imkoniyatlarni yaratish borasidagi jadidlarning fikrlari bugungi kungacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Adabiyotlar:

1. Ahrorova Z. Mahmudxo'ja Behbudiyning pedagogik qarashlari va ma'rifiy-amaliy faoliyati. Pedagog. Fan.nomzodi. diss.T.: 1997 y.
2. Abdirashidov Z. "Jadidlar. Mahmudxo'ja Behbudiy" T.: Yoshlar nashriyot uyi. 2022y
3. Behbudiy. Tanlangan asarlar. T.: "Ma'naviyat" nashriyoti, 1997 y.
4. Israilov. Z. "Türkistan ceditçilerinin dinî düşüncesi" doktora tezi. Bursa 2023 y.
5. Ma'murov B.B. "Umumiy pedagogika" darslik. B.: "Durdona". 2020 y
6. Mustafayeva N. Turkiston jadidlari qarashlarida ta'lim-tarbiya masalalari. O'zbekiston tarixining dolzarb masalalariga yangi chizgilar. Davriy to'plam, №2, Toshkent, "Sharq", 1999 y
7. Odob-axloq kitobi. Jadid adabiyoti namoyondalari. T.: Yangi asr avlodi. 2015 y.
8. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoiylik. T.: "Ma'naviyat". 2002y.
9. Samadova S.S. "The significance of the Jadids' scientific heritage in developing the spirituality of yourth in New Uzbekistan" // Intelektualitas: Jurnal Penelitian Lintas Keilmuan. Indonesia. Volum 1. Number 4. 2025. p1-6.
10. Samadova S.S. "The issue of education and upbringing in the spiritual heritage of the Jadids of Turkestan" // Cognizance Journal of Multidisciplinary Studies. Volume 5. Issue 1. 2025. p 408-415.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017094100350005

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2025-yil 4-son (115) 2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan. OBUNA INDEKSI: 3070	Buxoro davlat universiteti nashri Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan. Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi. Nashr uchun mas’ul: Nigora SAYFULLAYEVA Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA Musahhah: Sarvinoz RAXIMOVA	Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar. Bosishga ruxsat etildi 28.04.2025 Bosmaxonaga topshirish vaqti 29.04.2025 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda. “BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.
--	--	---